



**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
TOG'-KON SANOATI
VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI**



YILLIK AXBOROTNOMA

2023

www.gov.uz/mingeo





Mundarija

Vazir murojaati.....	3
Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi haqida.....	4
I bob. Tog'-kon sanoati va uning mamlakat iqtisodiyotidagi o'рни.....	5
O'zbekiston tog'-kon sanoati bo'yicha umumiy ma'lumot.....	5
Tog'-kon sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini.....	6
II bob. Geologiya qidiruv sohasida amalga oshirilgan ishlar.....	7
Geologiya qidiruv ishlarini moliyalashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.....	7
Mineral xomashyo bazasi rivojlantirish va yangi konlarni o'zlashtirish.....	8
Regional geologiya qidiruv ishlari.....	10
III bob. Tog'-kon sanoatidagi yutuqlar.....	11
Statistik ma'lumotlar: ishlab chiqarish hajmi, eksport va davlat budjetiga qo'shilgan hissa.....	11
Bozor tendensiyalari va O'zbekiston minerallariga bo'lgan talab.....	13
Tog'-kon sanoatida raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish.....	14
Muhim minerallarni qazib olish istiqbollari.....	15
Yirik investitsiya loyihalari va ularning sanoatga qo'shgan hissasi.....	16
Tog'-kon sanoatida soliq siyosati islohotlari.....	16
IV bob. Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv tashabbuslari.....	17
Tog'-kon sanoatida ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar.....	17
Tog'-kon sanoati korxonalarida GRI va ESG standartlarini tadbiq qilish.....	19
V bob: 2024-yil uchun reja va maqsadlar.....	20
Ishlab chiqarish hajmini o'stirish.....	20
Yer qa'ri to'g'risidagi yangi qonunni qabul qilish.....	21
Raqamli geologik ma'lumotlar bazasini joriy qilish.....	22
Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish.....	23
2024-yilda yirik investitsiya loyihalarini davom ettirish.....	25
Ilova: Yer qa'ridan foydalanuvchilarga ruxsatnomalar berish tartibi.....	26



Tog'-kon sanoati va geologiya vaziri murojaati



Hurmatli yurtdoshlar, hamkasblar va investorlar,

Oxirgi yillarda amalga oshirilgan ishlar va yaqin kelajakdagi istiqbolli rejalar haqida so'z yuritar ekanmiz, tog'-kon sanoati va geologiya sohasi bo'yicha mazkur yillik axborotnoma muhim manba bo'la oladi deb hisoblayman.

O'tgan bir yil davomida amalga oshirgan barcha sa'y-harakatlarimiz **"O'zbekiston – 2030" strategiyasida** belgilangan ulkan maqsadlar va vazifalar asosida O'zbekiston tog'-kon sanoati va geologiya sohasini rivojlantirishga qaratildi.

Yil davomida fidoiy jamoamiz boy mineral resurslarimizdan foydalanishni optimallashtirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish yo'lida tinimsiz mehnat qildi. Biz keng qamrovli geologik tadqiqot ishlarini olib borish, mineral xomashyo bazasini uzoq muddatli rivojlantirish va barqaror konchilik amaliyoti uchun qulay muhitni yanada yaxshilash borasida sezilarli yutuqlarga erishdik.

Bizning oldimizga qo'yilgan vazifalar markazida tog'-kon sanoatini rivojlantirish, geologiya ishlari ko'lamini yanada kengaytirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, tadbirkorlarga qulay sharoitlar yaratish, ta'lim va ishlab chiqarish uzviyligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish, raqamli texnologiyalarni sohaga keng joriy etish va malakali mutaxassislarni tayyorlash turibdi.

2024-yilda ham mamlakatimiz tog'-kon sanoati taraqqiyoti uchun investorlarning sohaga qiziqishini orttirish va ular o'zlarini sanoatimizda qulay his qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratamiz. Biz birgalikda O'zbekiston tog'-kon sanoati va geologiya sohasini gullab-yashnatish, xalqimizga manfaat olib kelish yo'lida islohotlarni amalga oshirishda davom etamiz.

Hurmat bilan,
Bobir Islamov





Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi haqida

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda 269-son Farmoni bilan tashkil etilgan bo'lib, kon-geologiya sohasida yagona davlat siyosatini shakllantiradi va amalga oshiradi.

Vazirlik maqsadi

Mineral resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga asos bo'luvchi geologiya va kon-metallurgiya sanoatini yaratish hamda sohada mintaqa yetakchisiga aylanish.

Vazirlik missiyasi

Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini barqaror rivojlantirish, mineral resurslarni samarali qidirish, qazib olish va boshqarishni ta'minlash.

Ustuvor vazifalar:

- Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash
- Foydali qazilmalarni qazib olish hajmlarini barqaror o'stirish
- Yer qa'ridan foydalanishni tashkil qilish va sanoat xavfsizligini ta'minlash
- Sohaga mahalliy va xorijiy investorlarni keng jalb qilish
- Sohada ilm-fanni rivojlantirish hamda kadrlar tayyorlash





I bob. Tog'-kon sanoati va uning mamlakat iqtisodiyotidagi o'рни



1.1 O'zbekiston tog'-kon sanoati bo'yicha umumiy ma'lumot

O'zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan bo'lib, u qariyb 449 ming kv. km maydon va 37 million aholiga ega. O'zbekiston berk hududda ya'ni dengiz portiga ega bo'lmagan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston va Turkmaniston kabi besh mamlakat bilan chegaradosh.

O'zbekiston geografiyasi xilma-xil landshaftlari va boy tabiiy resurslari bilan ajralib turadi, bu esa uni tog'-kon sanoati uchun qulay mamlakatga aylantiradi. Yurtimizning ayniqsa Navoiy, Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari foydali qazilmalarga boy hisoblanadi. O'zbekiston hududida **oltin, kumush, platina metallari, mis, uran, qo'rg'oshin, molibden, volfram, marganes, litiy, xrom, nikel, qalay, tantal, niobiy, kobalt, skandiy, germaniy, reniy, neft, tabiiy gaz** kabi ko'plab turdagi mineral resurslar aniqlangan.

O'zbekiston strategik foydali qazilmalarining zaxiralari bo'yicha dunyoda o'z o'rniga ega bo'lib, zaxiralari bo'yicha jahon miqyosida birinchi o'nta mamlakat qatoriga kiradi. E'tiborlisi, O'zbekiston oltin zaxirasi bo'yicha 5-o'rin, uran zaxirasi bo'yicha 12-o'rin, mis zaxirasi bo'yicha 8-o'rin, kaliy tuzlari zaxirasi bo'yicha 4-o'rinda turadi.

2023-yilda tog'-kon sanoati va geologiya sohasida qonunchilik bazasini mustahkamlash, yer qa'rini geologik jihatdan o'rganishni takomillashtirish, mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish, geologiya-qidiruv ishlarini rag'batlantirish va sohaga investitsiyalarni faol jalb qilish yo'lida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirildi. Jumladan:

- geologik jihatdan kam o'rganilgan yer qa'ri uchastkalarini xalqaro standartlar asosida **bloklarga** (maydonlar) ajratish tizimi joriy etildi;

- o'rganilganlik darajasi va kon ochish salohiyati yuqori bo'lgan maydonlarda geologik jihatdan o'rganish hamda qazib olish ishlarini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar **auksion** o'tkazish yo'li bilan berish amaliyoti joriy qilindi;

- kam o'rganilgan yoki o'rganilmagan hududlar bo'yicha investorlarning murojaatiga muvofiq – **“birinchi kelgan birinchi oladi”** tamoyilini qo'llash orqali yer qa'ridan foydalanish huquqini berish yo'lga qo'yildi;



- geologiya-qidiruv ishlarini o'tkazish uchun ajratilgan yer uchastkalari yer solig'idan ozod etildi;

- yer osti boyliklaridan foydalanishga doir ruxsatnomalarni to'liq davlat xizmatlari elektron platformasi orqali "yagona darcha" tamoyilida berish tashkil qilindi;

- geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar konlarni qidirish, aniqlash va ishlatish davrida geologik qidiruvni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus texnikalarni vaqtincha olib kirishda davriy bojxona to'lovlaridan ozod etildi;

- O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskunalar, moddiy-texnika resurslari va maxsus texnikalarni import qilishda bojxona bojidan ozod etildi.

Shuningdek, 2022-yil 1-yanvardan investorlar uchun jozibador bo'lgan foydali qazilmalarning ayrim turlari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari sezilarli darajada kamaytirildi.

2023-yil dekabr holatiga O'zbekistonda jami 519 ta strategik turdagi foydali qazilmalar konlarida geologik qidiruv va qazib olish ishlari borilmoqda. Shundan, turli bosqichdagi 18 ta loyiha xorijiy investorlar tomonidan amalga oshirib kelinmoqda.


1.2 Tog'-kon sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'рни

2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarda 1 066 569 mlrd. so'mni (yoki 90,8 milliard AQSH dollarini) tashkil etdi va 2022-yil bilan taqqoslaganda 6 % ga o'sdi. 2023-yilda aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi esa joriy narxlarda 29 291,4 ming so'mni (yoki qarib 2 500 AQSH dollarini) tashkil etdi.

O'zbekiston tog'-kon sanoati mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tog'-kon sanoati eksport daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga katta hissa qo'shadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2023-yilda respublika sanoat korxonalarini tomonidan 655,8 trln. so'mlik (yoki 53,15 milliard AQSH dollari) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich oxirgi 5 yil davomida muntazam o'sib kelmoqda.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish





2023-yilda O'zbekistonning jami eksporti 24,4 milliard dollarni tashkil qildi. Eksportning umumiy hajmida oltin, xizmatlar sohasi va sanoat mahsulotlari yetakchilik qildi. Xususan, jami eksportning 33,4 foizini oltin, 21 foizini xizmatlar, 17 foizini sanoat mahsulotlari tashkil etadi.

Tog'-kon sanoati mahsulotlarini eksporti 1,8 mlrd dollarni yoki umumiy sanoat mahsulotlari eksportidagi ulushi 44 foizni tashkil qildi. Shunga ko'ra, YAIMdagi tog'-kon sanoatining ulushi 17 foizni yoki 15,8 mlrd dollarga yetdi.

II bob. Geologiya qidiruv sohasida amalga oshirilgan ishlar

2.1 Geologiya qidiruv ishlarini moliyalashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish

O'zbekistonda geologiya-qidiruv ishlarini davlat byudjeti, kon-metallurgiya korxonalarini va investorlar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Respublika mineral-xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturi doirasida 2017-2023-yillar davomida davlat byudjeti va kon-metallurgiya korxonalarini tomonidan mineral-xom ashyo bazasini o'stirish uchun jami 8,7 trillion so'm mablag' ajratilgan.

Buning natijasida 2017-2023-yillar davomida jami 8 885 ming pogona metr burg'ilash, 84 ming pogona metr. yer osti hamda 2 466,5 ming kub metr yer usti tog'-kon ishlarini bajarilgan va burg'ilash uskunalari soni 151 taga yetkazilgan.

Shuningdek, 2017-2023-yillarda respublika hududining tog' va tog'oldi maydonlarida 47,6 ming kv km qismida geologik o'rganish ishlarini olib borilgan va respublika hududining o'rganilganlik darajasini 35 foizga yetkazildi.

O'zbekiston 2023 yilda geologik qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun jami 2,23 trillion so'm mablag' sarfladi. Shundan 1 trillion so'mi yoki 44,5 foizi davlat byudjeti mablag'lariga to'g'ri keladi.

Xozirgi kunga qadar, geologiya-qidiruv ishlariga Kanada, Fransiya, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Avstriya va Rossiya kabi mamlakatlardan investitsiyalar jalb qilindi.

2017-2023 yillarda xorijiy investorlar tomonidan geologiya-qidiruv ishlariga jami 4 trillion so'mdan ortiq mablag'lar sarflangan va 700 ming pogona meterga yaqin burg'ilash ishlarini amalga oshirilgan.





O'zbekistonda geologik tadqiqotlar va tog'-kon sanoatiga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2017 yilga nisbatan 50 baravar oshdi va 2023 yilda geologiya qidiruv ishlariga 175 million dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Kelgusi 2024 yilda bu ko'rsatkich 3 barobarga oshirilib, 500 million dollardan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtiriladi.

2024 yilgi mineral xomashyo bazasini rivojlantirish davlat dasturi doirasida 289 ta geologik loyiha bo'yicha geologiya-qidiruv ishlariga jami byudjet mablag'lari 900 milliard so'm yo'naltirilishi belgilangan.


2.2 Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va konlarni o'zlashtirish

O'zbekiston rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqib, mineral xomashyo bazasini rivojlantirishda yuqoridagi 3 turkumdagi minerallar resurs va zaxiralarini o'stirishga ustuvorlik beradi. O'zbekiston iqtisodiyotini o'stirishda oltin, kumush, mis, uran, uglevodorod, rux va qo'rg'oshin kabi mineral resurslarning hisyasi yuqori hisoblanadi. Mazkur mineral resurslar YAIMni o'stirish salmoqli hissa qo'shib, davlat byudjetga tushumlarning ortishiga olib keladi.

Iqtisodiy o'sishda hissasi yuqori minerallar	Au Oltin	Cu Mis	U Uran	C Uglevodorod
	Ag Kumush	Zn Rux		
		Pb Qo'rg'oshin		

Sanoatini o'stirish uchun muhim minerallar	Cu Mis	Fe Temir	MM Muhim minerallar	C Uglevodorod
	Qo'shimcha qiymat			
Sanoat tarmoqlari uchun xomashyo bazasi				

Muhim minerallar	Li Litiy	Cu Mis	W Volfram	Mo Molibden
	Nb Niobiy	Mg Magniy		
	Ta Tantal	C Grafit		





Shuningdek, qiymat yaratish va texnologik sanoat tarmoqlari uchun muhim xomashyo bazasi bo'lib xizmat qiladigan mis, temir, uglevodorod hamda texnologik metallar mamlakat sanoatini o'stirish uchun muhim o'rin egallaydi.

Bundan tashqari, jahonda yashil energiya tashabbuslari uchun zarur bo'lgan litiy, mis, volfram, molibden, niobiy, magniy, tantal, grafit va boshqa muhim minerallarga bo'lgan bozor talabi ortib bormoqda.

2017–2023-yillar davomida 33 turdagi foydali qazilmalar zaxirasining o'sishiga erishilgan. Xususan, qimmatbaho metallar zaxira ko'rsatkichlari oltin va kumush mos ravishda 755 tonna va 2 273 tonna, rangli metallar mis 1 340 ming tonna, qo'rg'oshin 225 ming tonna, rux 249 ming tonna va noyob metallar 6,4 ming tonnaga o'stirilgan.

Xususan, 2023-yilda oltin zaxiralari 140 tonnaga, kumush zaxiralari 246 tonnaga, mis zaxiralari 259 ming tonnaga qo'rg'oshin zaxiralari 42 tonnaga va rux zaxiralari 60 tonnaga oshirildi.

Amalga oshirilgan geologik qidiruv ishlari natijasida Respublikada qimmatbaho va rangli metallar bo'yicha aniqlangan kon soni jami 133 tani tashkil qiladi. 2017-2023 yillarda amalga oshirilgan geologiya qidiruv ishlari natijalariga ko'ra esa 43 ta yangi kon zaxiralari aniqlandi.

2024 yilda byudjet mablag'lari hisobidan 420,7 ming pogona metr burg'ilash, 4,9 ming metr yer osti va 192,5 ming kub metr yer usti tog'-kon ishlari, 7 000 pogona km. 2D va 1 900 kv. km. 3D seysmik qidiruv ishlari bajariladi.

Shuningdek, uglevodorod xomashyosiga izlov-parametrik burg'ilash uchun 18 ta yangi neft va gaz istiqbolli strukturalari tayyorlanadi.

Natijada zaxiralar bo'yicha oltin – 144 tonna, kumush – 180 tonna, mis – 250 ming tonna, uran – 5 700 tonna, qo'rg'oshin – 42 ming tonna, rux – 48 ming tonna, volfram – 8,5 ming tonna, yer osti suvlari – 158 ming metr kub, ko'mir – 5,5 million tonna, ohaktosh – 30 million tonna, qum-shag'al aralashmasi – 1,4 million metr kub, marmar- 2 million tonna, granit – 0,5 million tonna, gips – 10 million tonna, dolomit – 5 million tonna, lyoss – 0,5 million metr kub, qurilish toshlari – 5 million metr kub, kaolin – 1 million tonna, kaliy tuzlari – 10 million tonna miqdorida ko'paytiriladi.

Shu bilan birga, 2024 yilda 6 ming kv. km hududlarda mukammal kosmogeologik va geokimyoviy tadqiqotlar hamda 3 ming kv. km maydonda 1:50000 masshtabdagi geologik qayta o'rganish ishlarini olib boriladi. Kam o'rganilgan 7,5 ming kv. km maydonlarda zamonaviy yerni masofadan zondlash va aerogeofizik (5 ming kv. km) usullarini qo'llagan holda ixtisoslashgan geologiya-qidiruv ishlari amalga oshiriladi.




2.3 Regional qidiruv ishlari

O'zbekistonning umumiy hududi 448,9 ming kv.km, shundan tog' va tog'oldi hududlari 134,6 ming kv.km ni tashkil etadi (30%).

2017-2023-yillarda respublika hududining tog' va tog'oldi maydonlarida 47,6 ming kv km qismida geologik o'rganish ishlari olib borilgan va respublika hududining o'rganilganlik darajasini 35 foizga yetkazilgan. Jumladan, tog' va tog'oldi hududlarida 36,6 ming kv. km regional o'rganish va 11 ming kv km seysmorazvedka 3D ishlari amalga oshirilgan.

2024-2030-yillarda Respublika foydali qazilmalarning istiqboldagi resurslarini ko'paytirish uchun kelgusi 7 yilda 60 ming kv. km. maydonda - regional geofizik tadqiqotlar, 23,3 ming kv. km. maydonda - regional kimyoviy tadqiqotlar, 26,5 ming kv. km. maydonda - regional geologik tasvirlash ishlari amalga oshiriladi.

Natijada Respublika hududining tog' va tog'oldi maydonlarini umumiy o'rganilganlik darajasi 2023 yildagi 35 foizdan 2030 yilda 78 foizga yetkaziladi.





III bob. Tog'-kon sanoatidagi yutuqlar

3.1 Statistika ma'lumotlar: Ishlab chiqarish hajmi, eksport va davlat budjetiga qo'shilgan hissa

O'tgan 2017-2023 yillarga nazar tashlaydigan bo'lsak, biz qimmatbaho va rangli metallar, shuningdek, qora metallurgiya mahsulotlari, energetika xomashyosini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasini ko'rishimiz mumkin, shuningdek, yillik o'sish sur'ati (CAGR) 5%.

2023-yilda tog'-kon sanoati korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 118 trillion so'mni tashkil etib (10 milliard AQSH dollari), shundan qimmatbaho va rangli metallar sohasida 97,3 trillion so'm (8 milliard AQSH dollari), qora metallurgiya sohasida 12 trillion so'm (1 milliard AQSH dollari), uran sohasida 6,7 trillion so'm (600 million AQSH dollari), ko'mir sanoatida 1,8 trillion so'm (200 million AQSH dollari) mahsulot chiqarildi.

Jumladan, "Navoiy KMK" AJ tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 67 trillion so'mni (5,5 milliard AQSH dollari) tashkil qilib, o'sish sur'ati 103,8 foizga ta'minlandi. Bunda 91,3 tonna oltin va 20,4 tonna kumush ishlab chiqarildi.

"Olmaliq KMK" AJ tomonidan 31 trillion so'mlik (2,5 milliard AQSH dollari) sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. Bunda 148,5 ming tonna mis ishlab chiqarildi, shuningdek yo'ldosh oltin – 17,4 tonna, kumush – 161 tonna, molibden – 785 tonna.

"Navoiyuran" DK tomonidan jami 6,7 trillion so'mlik (600 million AQSH dollari) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bunda 2022-yilga nisbatan 11 foiz ko'proq miqdorida uran konsentrati ishlab chiqarildi.

"O'zmetkombinat" AJ tomonidan jami 9,2 trillion so'mlik (1028,5 million tonna) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bunda 780,1 ming tonna qora metall prokati ishlab chiqarildi, shu jumladan po'lat sharlar 248 ming tonna ishlab chiqarishga erishildi.

Buning natijasida 2017-2023-yil davr davomida kon-metallurgiya korxonalaridan soliqlar va dividend to'lovlari hisobiga davlat byudjetiga jami 245 trillion so'm tushumlar amalga oshirilgan.





2023-yilda O'zbekistonning 10 ta eng yirik soliq to'lovchilari qatoriga "Navoiy KMK" AJ, "Olmaliq KMK" AJ va "Navoiyuran" DK kabi yirik korxonalar kirdi. 2023-yilda davlat byudjeti qo'shimcha 59 trillion so'm bilan to'ldirildi.


Bugungi kunda tog'-kon sanoati va geologiya sohasidagi korxonalar tomonidan jami 106 ming ish o'рни yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi e'lon qilingan respublikadagi eng ko'p ish beruvchi Top-10 korxonalar ichida Navoiy KMK 1-o'rinni va Olmaliq KMK 2-o'rinni egallagan. 2023-yil holatiga ko'ra Navoiy KMKda 43 ming ta va Olmaliq KMKda 35,8 ming ta ish o'рни mavjud.

O'z o'rnida mehnat unumdorligiga qaraydigan bo'lsak o'tgan 2017-2023-yillarda kon-metallurgiya korxonalari mehnat unumdorli CAGR 13% tashkil qilgan.

2017-2023-yillar mobaynida kon-metallurgiya korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti qiymati jami 9 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, import hajmi esa 8 milliard dollarga yetgan.

2023-yilda mahsulot va xizmatlar eksporti jami 1,2 milliard dollar (111,3%), shu jumladan rangli metallar bo'yicha 661,6 million dollar (101,9%), qora metallurgiya bo'yicha 99,1 million dollar (125,5%) va uran bo'yicha 424 million dollar (126,3%) tashkil etdi.

2023 yilda kon-metallurgiya korxonalarining umumiy soliq tushumlaridagi ulushi (milliard so'm)





3.2 Bozor tendensiyalari va O'zbekiston minerallariga talab

So'nggi yillarda jahon miqyosida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tog'-kon sanoati mahsulotlariga talab ortib bormoqda. Mazkur tendensiya bir nechta asosiy omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, O'zbekiston oltin va kumush kabi qimmatbaho metallarning katta zaxiralari ega, bu mamlakatni xalqaro qimmatbaho metallar bozoringa nufuzli ishtirokchisiga aylantiradi. Ikkinchidan, O'zbekiston mis, qo'rg'oshin va rux kabi muhim metallar ishlab chiqaruvchi konlarga ega. Uchinchidan jahon bozorlarida elektromobil, yadroviy energiya ishlab chiqarish sanoati, elektronika va qurilish tarmoqlarida ishlatiladigan asosiy metallarga ehtiyojning ortishi. An'anaviy bozorlardan tashqari, O'zbekistonning foydali qazilmalariga qayta tiklanadigan energiya manbalari va yuqori texnologiyali sanoat kabi rivojlanayotgan tarmoqlarda ham talab ortib bormoqda.

Rangli metallar mahsulotlar kesimida, 2023-yilda 57 ming tonna mis, 42 ming tonna rux, 840 tonna molibden mahsulotlar va 23 ming tonna qo'rg'oshin konsentrati, 5045 tonna mis kuporosi eksporti amalga oshirilgan. Shuningdek, reniy, kadmiy, tellur, palladiy kukuni kabi mahsulotlar eksporti ham amalga oshirildi.

Hozirda O'zbekiston tog'-kon sanoati mahsulotlar 30 dan ortiq davlatlarga eksport qilinmoqda. Yildan-yilga mahsulotlar eksport geografiyasi kengayib boryapti va 2023-yilda O'zbekiston mahsulotlari yangi bozorlar – Meksika va Finlyandiya kabi davlatlarga kirib bordi. Shuningdek, "Olmaliq KMK" AJ tomonidan 2023-yilda yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan 23,8 mln. dollar qiymatidagi mis katankasi Amerika Qo'shma Shtatlari va Germaniyaga eksport qilindi.





O'zbekiston 2024-yilda global minerallar bozoridagi raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida tog'-kon sanoati infratuzilma yaxshilash, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, bozorni diversifikatsiya qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni kengaytirish va sohada qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratadi.

3.3 Tog'-kon sanoatida raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish

2024-yilda "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasiga muvofiq, Kon-geologiya vazirligi tomonidan yer osti suvlarini monitoring qilish, xavfli geologik jarayonlarni monitoring qilish, foydali qazilmalar davlat balansini yuritish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, BIM-texnologiyalar asosida sanoat obyektlarini loyihalashtirish hamda geologik ma'lumotlar bankini yuritish imkonini beruvchi 6 ta axborot tizimlari ishga tushirildi. Yer qa'ridan foydalanish bo'yicha 4 turdagi ruxsatnomalarni rasmiylashtirish jarayoni to'liq elektron ko'rinishga o'tkazildi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning yirik kon-metallurgiya korxonalarini ham raqamlashtirish jarayoniga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Xozirgi kunga qadar "Navoiy KMK" AJ, "Olmaliq KMK" AJ, "Navoiyuran" DK, "O'zmetkombinat" AJ va "O'zbekko'mir" AJ korxonalarida raqamli transformatsiya yo'nalishida 100 tadan ortiq loyihalar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi.

Mazkur loyihalar doirasida:


a) Korxonalarda boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish va ish yuritish jarayonini raqamlashtirish yo'nalishida elektron hujjatlar almashinuvi tizimi, xaridlar va ombor yuritish elektron tizimi yaratildi hamda geologik hujjatlar va burg'ilangan quduqlar bo'yicha ma'lumotlar raqamlashtirildi.

b) Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviy axborot tizimlarini qo'llash yo'nalishida kon avtotransport vositalarida "GPS" monitoringi va yonilg'i nazorati tizimi, "PI System" va elektroenergiya sifatini va iste'molini monitoring qilish tizimlari, ruda darajasini nazorat qilish tizimi hamda tegirmon konveyrlarini lokal boshqaruv tizimi ishga tushirildi.

2024-yil ham xalqaro kompaniyalar bilan imzolangan 20 ta anglashuv memorandumlari doirasida, kon-metallurgiya korxonalarini raqamli transformatsiya qilish bo'yicha 80 dan ortiq yangi loyihalar bo'yicha ishlar davom ettiriladi.



O'zbekistonda muhim minerallarning aniqlangan konlari



3.4 Muhim metallarni qazib olish istiqbollari

Texnologik metallar zamonaviy texnologiya, jumladan elektrotexnika sanoati mahsulotlari, qayta tiklanadigan energiya tizimlari va mudofa tizimida qo'llaniladigan texnikalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. So'ngi yillarda elektr transport vositalari, quyosh panellari, batareyalar va aqlli gadjetlar ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi natijasida noyob metallar va kamyob yer elementlariga bo'lgan talab keskin oshish tendensiyasi kuzatilmoqda.

O'zbekistonda muhim metallar va kamyob yer elementlari asosan boshqa metall konlarini kompleks o'zlashtirish natijasida yo'ldosh metallar sifatida ajratib olinadi.

Muhim metallar va kamyob yer elementlari konlari bugungi kunga qadar istiqbolli maydonlarda yillik hamda uzoq istiqbolga mo'ljallangan mineral xomashyo bazasini rivojlantirish davlat dasturlari doirasida geologiya-qidiruv ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda respublika hududida volfram, molibden, tantal, niobiy kabi texnologik metallarning resurslari mavjud.

2024-yilda O'zbekiston muhim metallar va kamyob yer elementlari zaxiralarini samarali o'zlashtirish uchun quyidagilarni amalga oshiradi:

- respublika hududida texnologik metallar konlarini aniqlashga yo'naltirilgan geologik qidiruv ishlarni jadallashtirish;

- sanoat chiqindilarini qayta ishlab natijasida texnologik metallarni ajratib olish texnologiyalarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;



- noyob metallar va kamyob yer elementlari geologik qidiruv ishlariga xorijiy investorlarini faol jalb qilish;

- ma'lum konlarda noyob metallar va kamyob yer elementlari ajratib olish va qayta ishlash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan zamonaviy uskunalarda laboratoriya tahlillarini o'tkazish, tajriba-texnologik izlanishlarni amalga oshirish.

3.5 Yirik investitsiya loyihalari va ularning sanoatga qo'shgan hissasi

Investitsiya dasturi muvofiq umumiy qiymati 11 mlrd dollarlik 39 ta loyiha doirasida 2023-yilda qariyb 2,1 mlrd dollar investitsiya o'zlashtirildi. Kon-metallurgiya kombinatlari tomonidan 24 ta loyiha bo'yicha 1,9 mlrd dollar investitsiya jalb qilindi.

Xususan, "Navoiy KMK" AJ tomonidan Balpantog', Pistali, Tomdibuloq va Turbay konlari ishlab chiqarishga jalb etildi, shu jumladan birinchi bosqichda Pistali koni negizida 2 mln tonna oltin rudasini qayta ishlash majmuasi (6-GMZ) ishga tushirildi.

"Navoiyuran" DK tomonidan 7 ta loyiha doirasida 62 mln dollar (100,5%) o'zlashtirildi, jumladan Oqtog' konida yiliga 200 t uran qazib olish yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birgalikda, "Olmaliq KMK" AJ tomonidan "Yoshlik-I" konini o'zlashtirish (1-bosqich) loyihasi doirasida 1,1 mlrd dollar mablag'lar o'zlashtirildi. Loyihani ishga tushirish orqali yiliga qo'shimcha 60 mln tonna ma'dan qazib olish hamda kombinatning qayta ishlash quvvatlarini oshirishga erishiladi.

Shuningdek, "O'zmetkombinat" AJ tomonidan Quyuv prokatlash majmuasini qurish loyihasi doirasida 260,9 mln dollar mablag'lar o'zlashtirilgan bo'lib, loyihani ishga tushirish natijasida kombinatning po'lat quyish quvvati yiliga 1 mln tonnadan 2,1 mln tonnaga va tayyor mahsulotning umumiy xajmi ikki barobarga, ya'ni yiliga 2,2 mln tonnaga oshadi.

2024-yilda umumiy qiymati 22,6 mlrd dollarlik 63 ta loyiha doirasida 4,1 mlrd dollar (2023-yilga nisbatan 195 foiz) investitsiyalarni o'zlashtirish (3,8 mlrd dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar) rejalashtirilgan.

3.6 Tog'-kon sanoatida soliq siyosati islohatlari

O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi" va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Hukumatning tegishli Farmon va qarorlariga asosan sohaga investorlarni jalb qilish maqsadida 2022-yil 1-yanvardan investorlar uchun jozibador bo'lgan foydali qazilmalarning ayrim turlari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari keskin pasaytirildi. Xususan:

- neft uchun – 2 barobarga (20 foizdan 10 foizgacha);
- tabiiy gaz uchun – 3 barobarga (30 foizdan 10 foizgacha);
- mis va oltin uchun – 1,4 barobarga (10 foizdan 7 foizgacha);
- rux uchun – 10 foizdan 7 foizgacha;
- qo'rg'oshin uchun – 8 foizdan 7 foizgacha;
- volfram uchun - deyarli 4 barobarga (10,4 foizdan 2,7 foizgacha);



- uran uchun – 10 foizdan 8 foizgacha;

- 2023-yildan boshlab temir uchun stavka 5 foizdan 2 foizgacha pasaytirildi.

Geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hamda ular tomonidan jalb etiladigan pudrat va yordamchi pudrat tashkilotlari ayrim turdagi davriy bojxona to'lovlari va bojlaridan ozod qilingan.

Konlarni qidirish, aniqlash va ishlatish bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan, asbob-uskunalar, moddiy-texnika resurslari va maxsus texnikalarni import qilishda bojxona boji (QQS va bojxona rasmiylashtiruvchi yig'imlaridan tashqari) olinmaydi. Bundan tashqari, mashina va maxsus jihozlarni vaqtincha olib kirishda bojxona to'lovlari talab qilinmaydi.

Maxsus renta solig'i

- Maxsus renta solig'ining stavkasi soliq bazasiga nisbatan 25% ni tashkil qiladi.
- Maxsus renta solig'i birlamchi ishlov berishdan o'tgan va realizatsiya qilish uchun yaroqli bo'lgan metallarni xomashyosini qazib olish faoliyatiga qo'llaniladi. Maxsus renta solig'i mahsulot taqsimotiga oid bitimlarga nisbatan qo'llanilmaydi.
- Renta zararini aniqlashda davlat xalqaro obligatsiyalar daromadlilikini 2% ga oshirgan qiymatda uplift qo'llaniladi.
- Xorijiy korxonalar soliq bazasini AQSh dollarida aniqlash huquqiga ega.

Yillik litsenziya to'lovi

- Geologiya-qidiruv ishlari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun yillik litsenziya to'lovi joriy etildi.
- Geologiya-qidiruv ishlari uchun yer qa'ridan foydalanish uchun yillik litsenziya boji quyidagilardan iborat:
- uglevodorodlar, qimmatbaho, rangli va nodir metallar uchun gektariga 3 AQSh dollari; va
- noruda foydali qazilma konlari uchun gektariga 4 AQSh dollari.

IV bob. Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv tashabbuslari

4.1 Tog'-kon sanoatida ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar

Bugungi global iqlim o'zgarishi sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish, barcha sohalarda ekologik talablarga rioya etish o'ta muhim sanaladi.

Shu boisdan mazkur yo'nalishdagi vazifalar "O'zbekiston — 2030" strategiyasida qat'iy belgilab o'tilgan.

Strategiyaga ko'ra, kon-metallurgiya sanoatida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me'yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash dasturini ishlab chiqish, bunda atrof-muhitga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarni ekologik talablar doirasidan oshmasligini ta'minlash



va ekologik menejment tizimini joriy etish choralarini nazarda tutish belgilangan.

2023-yilda kon-metallurgiya sanoatida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me'yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash dasturi ishlab chiqilgan. Dasturga asosan sanoat korxonalarida atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan quyidagi maqsadlar belgilab olingan:

- atrof-muhit ifloslanishining oldini olish;
- texnogen ta'sirdan zararlangan yerlarni qayta tiklash;
- moddiy, energetik, texnik, ekologik va moliyaviy resurslar sarfini kamaytirgan holda mineral xom ashyodan to'liq foydalanish;
- ISO 14001:2015 xalqaro standarti asosida ekologik menejment tizimining samarali ishlashini ta'minlash va takomillashtirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun 2023-yilda kon-metallurgiya korxonalarini tomonidan sanoat chiqindilarini yig'ish, zararlantirish, yo'q qilish hamda qayta ishlash borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, korxonalarda atrof muhitga ifloslantiruvchi moddalarni tashlash turg'un manbalarida avtomatlashtirilgan nazorat tizimi, yer osti suvlari ifloslanishi holatini tizimli monitoring qilish amaliyoti, ekologik menejment tizimi hamda sanoat chiqindi suvlarini tozalash texnologiyalari joriy etildi.

Kon-metallurgiya korxonalarini tomonidan atrof muhitni muhofaza qilish, yerlar ifloslanishi va degradatsiyasining oldini olish, suv resurslarini tejash, atmosfera havosiga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytirish bo'yicha uzoq muddatli ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish strategiyalari ishlab chiqildi.

O'zbekiston tog'-kon sanoati korxonalarida jami 30 ta chiqindi omborlari mavjud bo'lib, jumladan "Navoiy KMK" AJ va "Navoiyuran" DK da 11 tadan hamda "Olmaliq KMK" AJ da 8 ta qattiq maishiy va sanoat chiqindilar omborlari hisoblanadi.

2023-yilda "Navoiy KMK" AJda yiliga qariyb 16 mln tonna texnogen chiqindilarni qayta ishlash imkonini beruvchi 7-gidrometallurgiya zavodi barpo etildi. Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bu zavodda murakkab jarayonlar orqali qayta ishlangan (texnogen) chiqindilardan mahsulot olish yo'lga qo'yildi.

"Olmaliq KMK" AJ da ham texnogen chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha jami 4 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib ularda 1 mln tonna ortiq chiqindi qayta ishlanmoqda.

4.2 Tog'-kon sanoati korxonalarida GRI va ESG standartlarini tadbiq qilish

O'zbekiston tog'-kon sanoati korxonalarida investorlar va kapital bozorlardan mablag' jalb qilish hamda xalqaro standartlarni o'zlashtirish maqsadida atrof muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tartiblarini joriy etish jarayonlari 2020-yilda boshlangan.



“Olmaliq KMK” AJ 2020-yildan boshlab “Barqaror rivojlantirish hisoboti” (SDR) global tashabbuslar standartlariga (GRI standards) muvofiq nashr etib kelmoqda. Mis ishlab chiqarish segmentida issiqxona gazlari emissiyasini (Scope1 + Scope2) hisoblash metodologiyasi ishlab chiqilib, 2023-yil uchun issiqxona gazlari emissiyasi (Scope1 + Scope2) hisoblandi, xamda kombinat mutaxassislarni uchun trening o'tkazildi.

“O'zmetkombinat” AJ va “Navoiyuran” DKda ESG standartlarini joriy etish strategiyasi ishlab chiqilmoqda va strategiyaga muvofiq chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

“Navoiy KMK” AJda ham atrof muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) standartlarini joriy etish ishlari davom ettirilmoqda va korxonada mazkur yo'nalishda strategiya ishlab chiqqan. Korxonada 2019-2023-yillar uchun xalqaro GRI standartlari asosida Barqaror rivojlanish hisobotlari (SDR) ishlab chiqqan.




Barqaror rivojlanish faoliyati doirasida korxonalar tomonidan “Energiya boshqaruv tizimi” ISO50001:2018, “Atrof-muhit muhofazasining xalqaro standartlar tizimi” ISO14001:2015 hamda “Sanoat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish” ISO 45001:2018 xalqaro sertifikatlari olindi. Bundan tashqari rasmiy veb-saytda barqaror rivojlanish ESG sahifasi yaratilib, sahifaga zarur ma'lumotlar joylangan. 2023-yilda kon-metallurgiya korxonalarida “ESG Databook” hisobotlari tayyorlandi va rasmiy sayt orqali e'lon qilindi.

V bob. 2024-yil uchun reja va maqsadlar

5.1 Ishlab chiqarish hajmini o'stirish

O'zbekiston-2030 strategiyasida barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan qator maqsadlar belgilangan. Kon-metallurgiya sanoati mamlakat iqtisodiyotining drayver sohaslaridan biri hisoblanganligi sababli mazkur maqsadlarga erishishda tog'-kon sanoati va geologiya sohasining o'zni muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, O'zbekiston-2030 strategiyasida 2030-yilga qadar mamlakat iqtisodiyoti hajmini 2 barobar oshirish, ya'ni yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo'lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin – 1,5 barobar, kumush – 3 barobar, uran – 3 barobar oshirish, kon zaxiralarini baholashda ilg'or xalqaro standartlarni keng joriy qilish kabi ko'plab maqsadlar belgilangan. Mazkur maqsadlarga erishish uchun tog'-kon sanoati va geologiya sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, ishlab chiqarish samaradorligini yanada jadallashtirish, mineral xomashyo bazasini rivojlantirish hamda boshqa tizimli islohotlarni amalga oshirish talab etiladi.



Shu bilan birga, O'zbekiston 2024-yilda ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini barqarorligini saqlab qolish va o'stirish maqsad qilingan. Bunda Respublikada oltin ishlab chiqarish hajmini deyarli 5 tonnaga, kumush – 3 tonna, rux – 2 ming tonna molibden – 250 tonnaga o'stirish hamda 148,5 ming tonna mis ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

5.2 Yer qa'ri to'g'risidagi yangi qonunni qabul qilish



Yagona siyosatni yuritish, tartibga solish vakolatlarini belgilash

Davlat xizmatlarini rivojlantirish

Ma'lumotlarning ishonchligi va shaffofligini ta'minlash

Xalqaro standartlarni joriy etish

Minimal investor majburiyatlari

Atrof muhitni muhofaza qilish

2024-yilda O'zbekistonda so'nggi 22 yil davomida mamlakatda amal qilib kelgan "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri joriy etiladi. Tog'-kon sanoati va geologiya sohani huquqiy tartibga solish va amalga oshirilayotgan islohotlarga moslashtirish muhimligi "Yer qa'ri to'g'risida"gi qonunni xalqaro standartlarga mos ravishda qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Demak, tog'-kon sanoati iqtisodiyotda muhim o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda qonunning yangi tahririda qabul qilinishi O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega.

Qonun loyihasini ishlab chiqishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va yer osti boyliklaridan samarali foydalanishni ta'minlash;
- sohada faoliyat yuritayotgan davlat organlarining mas'uliyati va vakolatlarini aniq chegaralarini belgilash;

- litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish, yer qa'ridan foydalanish yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilish, hamda majburiyatlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash;

- konchilik ishlari xarajatlariga minimal talablarni joriy etish va o'zlashtirilgan konlarni rekultivatsiya qilish bo'yicha majburiyatlarni ta'minlash;

- geologiya-qidiruv ishlari va istiqbolli konlarga investorlarni keng jalb qilishni qo'llab quvvatlash;

- kam o'rganilgan maydonlarda bloklarga bo'lib o'rganish tizimini joriy etish;

- konlarni qidirish, mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlashda innovatsion texnologiyalarini joriy etishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

- mahalliy mahsulot va mutaxassislar raqobatbardoshligini oshirish.




Bugungi kunda, “Yer qari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahriri loyihasi tayyorlandi va mazkur qonun loyihasida tog‘-kon sanoatining institutsiyaviy, yer, mehnat hamda ekologik jihatlarini qamrab oladigan huquqiy asoslar aks ettirildi.

5.3 Raqamli geologik ma‘lumotlar bazasini yaratish

Ochiq geologik ma‘lumotlar bazasini (Geodata) raqamlashtirish va interaktiv geologik xaritani yaratish O‘zbekiston tog‘-kon va geologiya sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda 2024-yilda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan geologik ma‘lumotlar bazasi yaratish loyihasini amalga oshiriladi. Mazkur loyiha qiymati 8 million dollarni tashkil qilib, 2024-2028-yillar oralig‘ida amalga oshirilishi rejalashtirilmogda.

O‘zbekiston mazkur loyihani amalga oshirish orqali tog‘-kon sanoati va geologiya sohasining investitsiya jozibadorligini oshirish, geologik ma‘lumotlari investorlarga ochiqligini ta‘minlash va u orqali qo‘shimcha daromad manbaini yaratish, geologiya ma‘lumotlarini oqilona boshqarish, risklarni samarali boshqarish, modellashtirish va loyihalash ma‘lumotlarini vizualizatsiya qilishni maqsad qilgan.



Geologik ma‘lumotlar bazasi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. turli xil mashshtablardagi geologik xarita (vektor/raqamli);
2. geologik o‘rganish ishlari (masofdan zondlash, geofizik, geokimyoviy, tog‘-kon ishlari va boshqalar) natijalari;
3. tektonik xaritalar, magnetik/petrologik o‘rganishlar natijasi hamda ma‘dan minerallari tarkibi haqidagi ma‘lumotlari;
4. Geologik ma‘lumotlarni uyg‘unlashtirishga imkon beruvchi, istiqbolli konlarni aniqlashni osonlashtiradigan va geologik salohiyatni umumiy tushunishni kuchaytiradigan integratsiyalangan funksiyalar.

2024 yilda respublika hududining 1:200 000 mashtabda to‘liq raqamli geologik xaritalar to‘plami yaratiladi.





5.4 Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish

Tog'-kon sanoati va geologiya sohasida 2030-yilgacha tizimli islohotlar amalga oshirishdan ko'zlanayotgan bosh maqsad mineral resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga asos bo'luvchi geologiya va kon-metallurgiya sanoatini yaratish hamda sohada mintaqa yetakchisiga aylanish hisoblanadi. Mazkur islohotlar doirasida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi "2024-2030-yilda mineral xomashyo bazasi va tog'-kon sanoatini rivojlantirish strategiyasi"ni ishlab chiqadi.

Strategiyaning asosiy vazifasi tog'-kon sanoati va geologiya sohasini barqaror rivojlantirish, mineral resurslarni samarali qidirish, qazib olish va boshqarishni ta'minlashdan iborat bo'ladi. Mazkur maqsadlarga erishish uchun Strategiya quyidagi islohotlarni nazarda tutadi:

Geologiya-qidiruv sohasida davlat siyosatini yuritishda ustuvor ravishda milliy sanoatni rivojlantirish uchun muhim mineral-xomashyolar turlarini aniqlashga qaratish;

geologiya-qidiruv sohasida davlat siyosatini yuritishda ustuvor ravishda regional miqyosdagi geologiya ishlari jadallashtirish;

mamlakat sanoati va qo'shilgan qiymat yaratish uchun muhim bo'lgan mineral xomashyolar ro'yxatini tasdiqlash hamda yangi ishlanmalar, rivojlanayotgan texnologiyalar va o'zgaruvchan bozor dinamikasi asosida ushbu ro'yxatni yangilab borish;

Mineral resurslar zaxiralari hisobotlarining xalqaro standartlari qo'mitasiga (CRIRSCO) a'zo bo'lish yuzasidan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

Mineral resurslar, zaxiralar va geologiya - qidiruv ishlari natijalari to'g'risidagi O'zbekiston milliy Kodeksi ishlab chiqish;

sohada qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan sanoat klasterlarini tashkil qilish va ularning faoliyatini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

Muhim minerallar bo'yicha geologiya-qidiruv ishlarini jadallashtirish, qazib olish va boyitish texnologiyasini joriy etishda innovatsiyalarni qo'llash, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar amalga oshirish;

geologiya va tog'-kon sanoatida xalqaro darajadagi kompetensiya yaratish hamda kompetensiyaga ega bo'lgan shaxslar sonini oshirish, ilm-fanni rivojlantirish hamda kadrlarni tayyorlash bo'yicha xorijiy hamkorlikni kengaytirish;





tog'-kon sanoati va geologiya sohasida elektron davlat xizmatlari ko'rsatishni yanada takomillashtirish, geologiya-qidiruv ishlarini loyihalashtirishda raqamli boshqarish tizimini joriy qilish;

tog'-kon sanoati va geologiya sohasida investitsiya salohiyatini faol targ'ib qilish;

investorlar uchun jozibador va raqobatbardosh soliq rejimini joriy qilish orqali investitsiya muhitini yanada yaxshilash;

kon-metallurgiya korxonalarida texnik ko'rsatkichlarni belgilangan normalarga muvofiq faoliyatini baholash tizimi (texnik audit) tashkil qilish;

raqamli geologik axborotdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, uning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

kon-metallurgiya va geologiya sohasida kadrlarni sertifikatlash milliy tizimini joriy etish;

amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarni qo'llab-quvvatlash va kuzatib borish maqsadida loyiha boshqaruvchisi belgilanib, raqamlashtirish tizimlarini qo'llash;

respublika sanoati uchun zarur bo'ladigan texnologik mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha maqsadli dastur ishlab chiqish;

mehnat xavfsizligini ta'minlashda xodimlarning shaxsiy ko'nikmasini doimiy ravishda oshirish;

yer qa'ridan foydalanishda atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, uning muqarrar salbiy ta'sirini minimallashtirish, yumshatish va kompensatsiya qilish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash.

Shuningdek, mazkur Strategiyani amaliyotga tatbiq qilish natijasida geologiya qidiruv ishlarida investorlar oqimining ortishi, geologiya qidiruv ishlariga ajratiladigan mablag'lar qiymati oshishi, respublika hududining umumiy o'rganilganlik darajasini oshirish, sohadagi mutaxassislar malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, sanoat klasterlarini tashkil qilish va ularni kengaytirish orqali mahsulotlar diversifikatsiyasini rivojlantirish, sanoat korxonalarida raqamlashtirish darajasini yanada oshirish hisobiga operatsion samaradorlikka erishish maqsad qilingan.





5.5 2024-yilda yirik investitsiya loyihalarini davom ettirish

Hozirgi kunda, geologiya qidiruv ishlarini amalga oshirish maqsadida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan umumiy qiymati 2 500 million dollarlik 29 ta investitsiya loyihalari shakllantirilgan. 2024-yil davomida 570 mln dollar qiymatdagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya mablag'larining o'zlashtirilishi rejalashtirilgan.

Ushbu investitsiyalar geologik resurslarni kengaytirish, barqaror rivojlanishni rag'batlantirish hamda tog'-kon sanoati va geologiya sohasini mustahkamlash uchun xalqaro tajriba hamda yirik kapitallar oqimi kirib kelishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu investitsiyalardan samarali foydalanish orqali biz xalqimizni yanada farovonlik va tabiiy resurslarni boshqarishda o'zini o'zi ta'minlashga erishishimiz mumkin.

Shu bilan birga, 2024-yilda tog'-kon sanoati korxonalarini tomonidan jami 36 ta loyiha doirasida 3577,2 mln dollar (shundan 3131,2 mln dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar) investitsiyalar o'zlashtirilishi rejalashtirilgan. Xususan:

- “Navoiy KMK” AJ tomonidan 12 ta loyiha doirasida – 1 mlrd dollar xorijiy investitsiyalar;
- “Olmaliq KMK” AJ tomonidan 10 ta loyiha doirasida – 2,2 mlrd dollar, shundan 2 mlrd dollar xorijiy investitsiyalar;

- “O'zmetkombinat” AJ tomonidan 6 ta loyiha doirasida – 196 mln dollar, shundan 100 mln dollar xorijiy investitsiyalar;
- “Navoiyuran” DK tomonidan 8 ta loyiha doirasida – 145 mln dollar, shundan 50 mln dollar xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishi rejalashtirilgan.

2024 yilda tog'-kon sanoatida umumiy qiymati 6 milliard dollarga baholangan oltita loyihaning ishga tushiriladi. E'tiborlisi, “Yoshlik 1” konining birinchi bosqichini va “Quyma-prokat majmuasi qurilishi”ni yakunlash bilan bir qatorda muhim marralarga erishiladi.


Ushbu loyihalarning ishga tushirilishi nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarining sezilarli darajada oshishi, balki ko'plab ish o'rinlari yaratilishiga ham xizmat qiladi. Jumladan, “Navoiy KMK” AJda Pistali investitsiya loyihasining 2 bosqichini amalga oshirish narijasida qo'shimcha 2 million tonna rudani qayta ishlash quvvati yaratiladi va 2110 ta yangi ish o'rnini yaratilishi kutilmoqda. Huddi shunday, “Olmaliq KMK” AJda ham rudani qayta ishlash bo'yicha sezilarli qo'shimcha quvvati 60 million tonnaga o'sishi bilan birga 5682 ta yangi ish o'rnini yaratilishi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, “O'zmetkombinat” AJ 1 million tonna issiq holdagi list o'ramlarini ishlab chiqarish loyihasini ishga tushirish orqali 456 ta yangi ish o'rnini yaratiladi.





Ilava

Yer qa'ridan foydalanuvchilarga ruxsatnomalar berish tartibi:





**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
TOG'-KON SANOATI
VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI**



**11 uy, Taras Shevchenko ko'chasi,
100060, Toshkent, O'zbekistan
Tel: +998 (71) 256-52-90
Elektron pochta: info@mingeo.uz**